

**BUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISHDA**  
**BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING O'RNI VA AHAMIYATI**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397442>

**Arabova Sabohat**

*TDIU 1-bosqich magistranti*

**Safarova Nodira**

*TDIU "Moliya" kafedrasi dotsenti, PhD*

Milliy iqtisodiyotda davlat budgetining o'rni va mohiyati o'sib bormoqda. Davlat budgeti budget tashkilotlari va budgetdan mablag' oluvchilarni faoliyatini moliyalashtirish, ya'ni davlatning vazifalarini ta'minlashni amalga oshirish maqsadida shakllantiriladi. Iqtisodiyotni boshqarish va taribga solishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy instrumentlari qatori, davlat budgeti muhim ahamiyat kasb etadi va aniq bir vazifalarni bajaradi.

Iqtisodiyotda davlat sektori tashkilotlarini moliyalashtirish, asosan, davlat budgeti va budgetdan tashqari jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladi. Budget tashkilotlarida budget va budgetdan tashqari mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi bevosita ularning hisobini samarali tashkil etish, moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlarining ochiqligi hamda ularni nazoratini tashkil etish bilan bilan uzviy bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 4-moddasida budget tashkilotlariga quyidagicha ta'rif berilgan: "Budget tashkiloti – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat budgeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot". Budget tashkilotlari moliya tizimining noishlab chiqarish tarmoqlaridagi muassasalar hisoblanadi. Noishlab chiqarish sohasi, bu iqtisodiyotning moddiy boyliklar ishlab chiqarmaydigan tarmoqlar jamlanmasidir. Ularga: maorif, boshqarish, madaniyat va boshqa jamoat tashkilotlari kiradi. Ular shaxsiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatishadi.

O'zbekiston Respublikasida budjet tizimining tarkibiy qismini Davlat budjeti, Davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari qamrab oladi. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari tarkibiga budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi, tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning budgetdan tashqari jamg'armalari, budget tashkilotlarining undiriladigan to'ovlar hisobiga shakllantiriladigan budgetdan tashqari mablag'lari kiradi.

Budget tashkiloti va budget mablag'lari oluvchilarining O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan xarajatlari budgetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida va ularning xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan maqsadlarda amalga oshiriladi. Budget tashkilotlari budget mablag'lari doirasida faoliyat yuritish bilar bir qatorda, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksiga muvofiq budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan manbalardan budget tashkiloti hisobiga kelib tushadigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Budget tashkilotlarining faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni moliyalashtirish manbalarini o'rganadigan bo'lsak, fikrimizcha, avvalo, Davlat budgeti xarajatlari tarkibida katta ulushga ega bo'lgan ijtimoiy soha, ya'ni ta'lim va tibbiyot tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'larni shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Chunki, ushbu soha tashkilotlarida budgetdan tashqari mabag'lar ulushini ko'paytirish orqali budget yukini bir oz bo'lsada, kamaytirish va ularda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib moddiy manfaatdorlikni ta'minlash natijasida faoliyatning rivojlanishiga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sen Farmoni, 2017-yil 21-avgustdag'i «Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3231-sen hamda 2018-yil 22-avgustdag'i

«Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qarori hamda mazkur masalaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda budget va budgetdan tashqari jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish, budget mablag'laridan samarali foydalanishda nazorat usullarini takomillashtirish masalalari kiritilgan.

Budget tashkilotlarining qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan rasmiy manbalardan oladigan daromadlari va tushumlari, shuningdek ular bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish davlat budgeti g'azna ijrosi mexanizmlari bilan qamrab olingan bo'lib, budget tashkilotlarining mablag'lari samarali, maqsadli va oqilona sarflanishini ta'minlash uchun xizmat qiladi, bu mablag'larning shakllanishi hamda sarflanishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi. Daromadlar orqali budget tashkilotlari xodimlarni ko'proq moddiy tomondan rag'batlantirsa, ushbu rag'batlantirish orqali budgetdan tashqari daromadlar qismini ko'paytirish bo'yicha xodimlar o'rtasida qiziqish paydo bo'ladi, bu o'z navbatida budgetdan tashqari mablag'larning ko'payishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Foydalanimayotgan binolar, oshxonalar va oshxona jihozlarini ijaraga berish orqali yoki budget tashkilotining mavjud asbob-uskunalaridan samarali foydalanishlari orqali ishlab chiqarishni, tajriba uchun ajratilgan yer maydonlaridan hamda boshqa manbalardan samarali foydalanishlari natijasida budgetdan tashqari daromadlarni ko'paytirishlari hisobiga qo'shimcha ish o'rinnari yaratishlari mumkin. Buning natijasida ishchi-xodimga hisoblangan ish haqidagi olinadigan soliq turlari bo'yicha budgetga qo'shimcha mablag'lar kelib tushadi.

### **Foydalanimayotgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Budget kodeksi", 26.12.2013
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdag'i «Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy

nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-3231-son Qarori.

4. Nurmuxamedova B.I., Xamdamov Sh.K. Davlat moliyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2021-y. – 436 b.
5. Begimqulov E.B. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag’larini shakllantirishni kengaytirish yo’nalishlari: magistrlik dissertatsiya – T.:2017.
6. Кобулов Х. А. Межбюджетное выравнивание в формировании доходного потенциала региона //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1004-1010.
7. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi “Tashabbusli byudjet” turlari va uni O’zbekistonda qo’llash dolzarbligi. Science and Education, 4(6), 853–859.
8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi).